

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON HUQUQLARINING
TA'MINLANISHI: SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING XAVFLARI,
HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA NAZORAT MEXANIZMLARINING
ILMIY TAHLILI**

Yanvarov Azizbek Yaxyo o'g'li

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti
Yurisprudensiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining globallashtirish davrida inson huquqlariga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri chuqur tahlil qilingan. Maqolada sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy bo'shliqlar, mas'uliyatni belgilash mexanizmlarining noaniqligi, diskriminatsion algoritmlar, kiberjinoyatlar va raqamli nazorat orqali shaxsiy hayot daxlsizligiga solinayotgan tahdidlar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy va xalqaro tashabbuslarning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahliliy yondashuv asosida izohlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellektning xavfsiz va mas'uliyatli qo'llanishi uchun global standartlar ishlab chiqish, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish hamda milliy qonunchilikni yangilash zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, inson huquqlari, raqamli nazorat, kiberxavfsizlik, huquqiy mexanizmlar, diskriminatsiya, global standartlar, AI etikasi, shaxsiy hayot daxlsizligi.*

ABSTRACT: *This article provides an in-depth analysis of the potential impact of artificial intelligence (AI) technologies on human rights in the context of globalization. It examines the legal gaps emerging as AI systems rapidly evolve, the uncertainty surrounding mechanisms for assigning responsibility, as well as risks related to discriminatory algorithms, cybercrime, and digital surveillance that threaten the right to privacy. The study also highlights the significance of national and international initiatives aimed at protecting human rights, outlines existing challenges, and explores possible solutions through an analytical approach. Based on the research findings, the article substantiates the need to develop global standards, strengthen international cooperation, and update national legislation to ensure the safe and responsible use of artificial intelligence.*

Keywords: *Artificial Intelligence, Human Rights, digital surveillance, cybersecurity, legal mechanisms, discrimination, Global standards, AI ethics, privacy protection, National Legislation.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье проведён глубокий анализ потенциального влияния технологий искусственного интеллекта (ИИ) на права человека в условиях глобализации. Рассматриваются правовые пробелы, возникающие в процессе стремительного развития ИИ-систем, неопределённость механизмов установления ответственности, а также риски, связанные с дискриминационными алгоритмами, киберпреступностью и цифровым наблюдением, угрожающим неприкосновенности частной жизни. Кроме того, анализируется значение национальных и международных инициатив, направленных на защиту прав человека, выявляются существующие проблемы и возможные пути их решения. По результатам исследования обосновывается необходимость разработки глобальных стандартов, усиления межгосударственного сотрудничества и обновления национального законодательства для обеспечения безопасного и ответственного применения искусственного интеллекта.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, права человека, цифровое наблюдение, кибербезопасность, правовые механизмы, дискриминация, глобальные стандарты, этика ИИ, неприкосновенность частной жизни.

Hozirgi globallashgan zamonda shaxslarning muayyan huquqlarini muhofaza qilish va ularni har tomonlama himoya qilish mexanizmini yaratish eng asosiy tartibga solinishi va keng miqyosda monitoring qilish imkoniyatini yaratilishini ta'qazo etayotgan muhim yo'nalishlardan hisoblanadi. Ayniqsa, inson huquqlari va u bilan bog'liq bo'lgan ajralmas normalarni har tomonlama mukammal qilishlik, ularni muhofaza qilishni yangi, zamonaviy tahdidlarga qarshi takomillashgan strategiyani yaratishlik shart va zarurdir. Zero, jadal sur'atlarda rivojlanayotgan texnikalar va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan raqamli texnologiyalar jamiyat va boshqa ko'plab sohalarga tezlik bilan kirib kelmoqda. Ushbu nuqtai nazaridan, ular tomonidan sodir qilinishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olishlik va ularga nisbatan adolatli va to'g'ri qonunlar tizimini yaratishlik asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuni inobatga olgan holda aytish mumkinki, ayni damda sun'iy intellekt va boshqa Artificial Intelligence (AI) larning soni tobora ortib borishligi, ular tomonidan amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va ularning jamiyatga va insonlarning kundalik yashash sharoitiga ta'sir ko'rsatishi, ma'lum bir tomondan ijobiy va ulardan oqilona foydalanish samarali va keng miqyosda yangiliklar izlab topishga xizmat qiladi. Aksincha, tezkorlik bilan takomillashayotgan sun'iy intellektni muayyan noqonuniy yo'llarda foydalanishlik, yetarlicha muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Aynan shu va shu kabi kelajakda kutilishi

va kuzatilishi mumkin bo‘lgan kamchilik va muammolarni oldini olish uchun yetarlicha kuch va e‘tibor talab qilinadi.

Ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish uchun davlatlar o‘rtasida va global tashkilotlar tomonidan xalqaro normalar ishlab chiqilishligi nafaqat huquqiy, balki, siyosiy masala hamdir. Bu me‘yorlarni qabul qilish va amaliyotda joriy qilish yuzasidan ayni damda takomillashtirilishligi zarur hisoblangan va yetarlicha davlat va xalqaro hamjamiyatlar tomonidan yechim va takliflar berilmagan sun‘iy onglarga oid bo‘lgan normalarni joriy qilish va inson huquqlarini buzilishini oldini olishda ularga nisbatan immunitet va qonunlar tizimini, normativ hujjatlarda yaratib, joriy qilish zarurdir.

Sun‘iy intellektlarning ilk avlodlari yaratilishidan tortib hozirgi kunga qadar ular yordamida sodir etilayotgan kiberjinoyatlar va raqamli nazorat bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar inson huquqlariga, jumladan so‘z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va xavfsizlikka oid huquqlarini himoya qilishda yetarlicha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa huquq tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Sun‘iy intellekt — insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmuidir.¹¹¹

Sun‘iy intellekt va boshqa bir qator AI lar zamonaviy jamiyatda vujudga kelayotgan murakkab savollarga javob izlashni talab qilmoqda. Sababi, sun‘iy intellekt va u bilan bog‘liq bo‘lgan, uni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarning mavjud emasligi, aniqroq qilib aytganda, hozirgi kungacha yaratilgan AI lar takomillashda davom etmoqda va ularning soni va bajara oladigan ishlar faoliyati jadal sur‘atlarda ko‘payib rivojlanmoqda va bu ularni nazorat qilish yoki muayyan tartib-taomillar yaratishlikni qiyinlashtiryabdi. Aynan shu sababli, hozirgi kunda yetarlicha normalar kiberjinoyatlar uchun mavjud emas.

Sun‘iy intellektning asosiy muammolaridan biri bu - mas’uliyatni belgilashlikdir.¹¹² Ya’ni, muayyan vazifa yoki topshiriqni bajarishda u keltirib chiqaradigan oqibatga kimni yoki nimani javobgar qilish asosiy masala hisoblanadi. Aniqroq qilib ushbu misolda tushuntiriladi. 2018-yil Uber avtonom avtomobili harakatlanish davomida piyodaning o‘limiga sabab bo‘ladi.¹¹³ Natijada, javobgarlikka tortish masalasida avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniya egasi javobgar bo‘lishi kerakmi yoki uning dasturiy ta’minotini yaratgan muhandislarmi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu kabi holatlar soni tobora ortib

¹¹¹“Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son. <https://lex.uz/docs/-7158604> (09.11.2025).

¹¹² G‘ulommamatova P. A. Kiberjinoyat huquqi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. – 144 b. B-92.

¹¹³ BBC News, (2020). “Uber’s self-driving operator charged over fatal crash”. <https://www.bbc.com/news/technology-54175359>

bormoqda va ularga muayyan belgilangan normalar bilan chek qo'yishlik inson huquqlarini yanada oliy maqomga ko'tarish va ularni tobora mukammallashgan, himoyalangan tizimga aylantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda, sun'iy intellekt noto'g'ri yoki muayyan nojo'yi maqsadlarni ko'zlagan holda yaratilgan dasturiy ta'minotlari natijasida inson huquqlarining buzilishi soni ortib bormoqda. Xususan, kreditlar berish tizimi, ishga qabul qilish, sug'urta berish kabi jarayonlarni amalga oshirish davomida irqiy va jinsiy diskriminatsiyalarga sabab bo'lmoqda.

Muayyan izlanishlar va o'tkazilgan tajribalar natijasida sun'iy intellekt va boshqa robototexnikalarga nisbatan robot yoki texnika jihatidan qaramasdan, balki ularning avtonom qaror qabul qilishligini inobatga olgan holda ularni "shaxs maqomiga tenglashtirish" masalasi keng muhokama qilindi. 2017-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan "elektron shaxs" maqomini sun'iy intellektlarga berish g'oyasi ilgari surildi va bu qisman o'z hatti-harakatlarining huquqiy oqibatlarni javobgarlikka olishni yuzaga keltirdi, ammo afsuski, bu masala hozirgacha xalqaro darajada kelishilmagan va muhokamalarga sabab bo'lmoqda.¹¹⁴

Inson huquqlarini muhofaza qilish va ularni keng jamoatchilikda tadbiq etishda xalqaro miqyosda ko'plab qonun-hujjatlar, xalqaro konvensiyalar tuzilgan. Eng muhim hujjatlar qatorida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) barcha xalqaro huquqning poydevorini tashkil etish bilan birga, barcha insonlarning qadr-qimmatini va tengligini e'tirof etadi. Deklaratsiyaning 12-moddasida shaxsiy hayot, yashash joyi va yozishmalarining daxlsizligi kafolatlanadi. Bu me'yorning mavjudligi ayni hozirgi vaqtda muayyan tartibda nazorat qilinmagan raqamli xavflarni inson huquqlaridan oldini olish va himoya qilish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyilini hurmat qilishga asoslangan millatlar o'rtasida tinchlik va do'stona munosabatlar uchun zarur barqaror va farovonlik sharoitini vujudga keltirish maqsadida inson huquqlariga, kishilarning irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutlaridan qat'i nazar, hammaning asosiy erkinliklariga yalpi hurmat bilan qarash va ularga rioya qilishga ko'maklashadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida inson huquqlari qanchalik jihatdan ahamiyatli ekanligi va u insonning asosiy erkinliklari bo'lib xizmat qilishida yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishi zarurligi ta'kidlab o'tilgan.

¹¹⁴ European Parliament, (2017). "Civil Law Rules on Robotics". Retrieved from <https://www.europarl.europa.eu> (09.11.2025)

Shu bilan bir qatorda, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt (1966) yuqoridagi deklaratsiyani yanada qo'llab quvvatlagan holda, davlatlarga inson huquqlarini yanada ta'minlash va ularni himoya qilish majburiyatini qo'yadi. 17-moddada¹¹⁵ shaxsiy hayotga noqonuniy jihatdan aralashish ta'qiqlangan va aynan bu huquqni himoya qilish davlatlarning majburiyati etib belgilangan.

Kiberjinoiyatlarga qarshi kurashishni xalqaro miqyosda aloqalarni yaxshilash, samarali va tajribadan muvaffaqiyatli o'tgan ijobiy natijalarni bo'lishish va keng miqyosda unga qarshi kurashish maqsadida Budapesht konvensiyasi (2001) qabul qilingan. Ushbu konvensiyada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va noqonuniy kirishlarni oldini olish uchun mexanizmlar yaratadi va bugungi kunga kelib 60 dan ortiq davlatlar o'z milliy qonunchiligiga ratifikatsiya qilgan.

Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi (1950) qabul qilinishi insonning asosiy huquqlari, jumladan, shaxsiy hayotni muhofaza qilish va so'z erkinligini yanada mustahkamlashda katta rol o'ynadi. Yevropa Inson Huquqlari Sudi bu huquqlar buzilgan taqdirda individual tarzda kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqadi va adolatni tiklashda muhim organ sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu xalqaro qonun-hujjatlar negizida inson huquqlarini muhofaza qilish maqsadida muayyan xalqaro normalarga asoslangan me'zonlar qabul qilindi va bu barcha davlatlar uchun majburiy ahamiyatga ega qilib ko'rsatildi. Xususan, General Data Protection Regulation (GDPR) - Yevropa Ittifoqi tomonidan 2018-yilda ishlab chiqilgan va shaxsiy ma'lumotlarni muhoza qilishni eng rivojlangan va zamonaviy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. GDPR ning faoliyati asosan, fuqarolarning shaxsiy huquqlarini noqonuniy foydalanishdan himoya qilishni nazarda tutadi va bu qoidalami buzgan tashkilotlarga jarimalar qo'llaydi. Misol tariqasida, 2021-yil Amazon kompaniyasi bu tartib-tamoyillarni buzganligi uchun 746 million yevro miqdorida jarimaga tortilgan.¹¹⁶ Bu esa nafaqat muayyan miqyosda obro' yoki iqtisodiy jihatdan kamroq mavqega ega bolgan kompaniyalar, balki, xalqaro darajada yetarlicha kuch va o'ziga yarasha mavqega ega bo'lgan kompaniyalarga ham birdek bu qoidalarining teng darajada tatbiq etilayotganini ko'rsatadi. Sababi, muayyan holatlarda, asosan, kichik kompaniyalar va tashkilotlar tomonidan yetkazilgan zararlar va boshqa tartibdagi huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga jazo choralarini qo'llashda ularga nisbatan qat'iy va keskin munosabatda bo'lishgan. Lekin, masala inson huquqlari borasida ketayotgan ekan, hech qanday ikkilanishlarsiz

¹¹⁵International Covenant on Civil and Political Rights <https://www.refworld.org/legal/agreements/unga/1966/en/17703> (09.11.2025).

¹¹⁶ European Data Protection Board. (2021). "Amazon GDPR Fine: 746 Million Euros". Retrieved from <https://edpb.europa.eu> (09.11.2025).

qonunlarni bir miqyosda barcha subyektlarga birdek qo'llanilishligi shart va zarurdir. Ayniqsa, bu kabi huquqbuzarliklarni sun'iy intellekt va boshqa intellektual texnologiyalar tomonidan yoki ularning yordamida sodir etilishi huquqbuzarlik sodir etayotgan tarafga ko'plab imkoniyatlar va qulayliklar yaratadi.

Shuningdek, yuzni aniqlash tizimlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xitoyda yuzni tanib olish texnologiyalari siyosiy dissidentlarni kuzatish va nazorat qilishda qo'llangan, bu esa inson huquqlari buzilishiga olib kelgan. Human Rights Watch tashkiloti bunday texnologiyalarni inson huquqlari bilan bog'liq ehtiyotkorlik bilan qo'llash zarurligini ta'kidladi.¹¹⁷

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlab o'tilgan sun'iy intellektning yuzni aniqlashda foydalanishlik natijasida u tomonidan odamlarning roziligisiz ularning harakatlari, joylashuvi va hatto kim bilan uchrashayotganini kuzatgan va bu shaxslarning maxfiylik huquqi buzilishini yaqqol namoyondasi hisoblanadi. Shuningdek, bu texnologiyani qo'llash orqali siyosiy dissidentlar va tanqidchilar ta'qibga olingan va bu esa so'z va fikr erkinligiga ochiqchasiga tahdiddir.

Shuningdek, bir qator yuqori mavqega ega bo'lgan va yetarlicha auditoriyasi mavjud bo'lgan xalqaro kompaniyalar va dasturlarning sun'iy ongi noto'g'ri ishlashi yoki soz bo'lmasligi natijasida yillar davomida yig'ilgan shaxslarning ma'lumotlari butun internetga tarqalib ketishi ham inson huquqlarining buzilishi hisoblanadi. Dalil sifatida, Facebook va Cambridge Analytica o'rtasida yuzaga kelgan mojaro natijasida 2018-yil millionlab foydalanuvchilarning ma'lumotlari ularning roziligisiz yig'ilgan va siyosiy kompaniyalarda ishlatilgan.¹¹⁸

Bu va boshqa ushbu turdagi vazifalarni bajaruvchi sun'iy intellektlardan keng miqyosda, muayyan maqsadlarda foydalanishlik, jamiyat o'rtasida vahima va qo'rquv hissini paydo qiladi va buning natijasida inson huquqlari erkin ravishda harakatlanishi cheklanadi va bu xalqaro inson huquqlari normalariga mutlaqo ziddir.

Raqamli nazoratga qarshi mexanizmlar - raqamli nazorat inson huquqlariga qarshi eng katta tahdidlardan biridir. Shuning uchun, xalqaro tashkilotlar fuqarolarni noqonuniy kuzatish va senzura himoya qilishga qaratilgan maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda.¹¹⁹ Freedom Online Coalition tashabbusi raqamli erkinlikni keng targ'ib qilish va internetdagi senzura bilan kurashish bo'yicha 30 dan ortiq davlatlarni birlashtirdi va

¹¹⁷ Human Rights Watch. (2020). "China: Abuses of Facial Recognition Systems". Retrieved from <https://www.hrw.org> (10.11.2025).

¹¹⁸ Isaak, J., & Hanna, M. J. (2018). "User Data Privacy" Facebook, Cambridge Analytica, and Privacy Protection". Computer. (10.11.2025).

¹¹⁹ G'ulommamatova P. A. Kiberjinoyat huquqi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. – 144 b. B-51.

ushbu koalitsiya inson huquqlarini global tarzda kiber xavflardan himoya qilish va ularni siyosiy muvofiqlashtirishni ta'minlashda xizmat qiladi.

Muayyan sun'iy intellekt tomonidan buziladigan huquqbuzarliklarni cheklash yuzasidan har bir davlatning ichki qonunchiligi bo'lishni ta'qozo etadi va so'ngra sohalarda yoki davlatlarda muvaffaqiyatli amaliyotda qo'llanilgandan so'ng xalqaro miqyosda qonun hujjatlar qabul qilinishlik maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan sun'iy ong bilan harakatlana oladigan avtomobillarga nisbatan alohida qonun normalari yaratilish rejalashtirilyabdi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan sun'iy intellektni tartibga solish maqsadida me'yorlar ishlab chiqarish, texnologiyalarni inson huquqlariga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan qonunchilik qoidalarini taklif qilmoqda. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, sun'iy intellekt va boshqa AI larning dasturiy ta'minotlarini yaratish davomida yuqorida ta'kidlangan va boshqa bir qator huquqbuzarliklar, diskriminatsiyalarni oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlarini muhofaza qilish kabi tamoyillar asosiy ustuvor g'oya sifatida qaralishi lozim.

XX asrning 80-yillaridan boshlab sun'iy intellekt kashfiyot sifatida qarala boshlandi. Uning yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarning huquqiy asosini qonunlar, statistik ma'lumotlar, farmon va strategiyalar shu sohadagi ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etdi. Sun'iy intellektni tartibga solishda ilmiy-tadqiqotning statistik, eksperimental metodlari qo'llanildi.¹²⁰ Ushbu metodlarni qo'llash davomida bir qator xulosalarga kelinmoqda. Ma'lumki, sun'iy intellekt faqat insonga tegishli bo'lgan his-tuyg'ulardan yiroq, balki yaqin kelajakda ularga bu funksiyalar ham qo'shib, takomillashtirilishi mumkin. Lekin ayni damdagi real faktlarga asoslangan holda fikr yuritadigan bo'lsak, quyidagi tajribani ularning faoliyati qanday tartibda amalga oshirishini ko'rishimiz mumkin. Tramvay muammosi - ya'ni muayyan temir yo'l izida ketayotgan tramvay ikki tomonga ajralgan yo'ldan ketish imkoniyati mavjud. Bir tomonda 5 kishi va ikkinchi tomonda 1 kishi va bu yerdagi shaxslarning muayyan o'ziga xos xarakteri va ijtimoiy mavqei mavjud. Aynan shunday hollarda, sun'iy intellekt va insonlarning fikrash va bir qarorga kelish holatlari har doim ham bir xil bo'ladimi degan savol tug'ilishi tabiiy. Shuningdek, sun'iy intellekt muayyan buyruq yoki takliflarda shaxslarning shaxsiy sirlari yoki umuman, yozishmalarini oshkor qilmaslik va ularni keng yoyilib ketishidan himoya qiladigan yakdil tizimning mavjud emasligi shaxslar o'rtasida sun'iy intellektga nisbatan qo'rquv va ishonchsizlik hissini uyg'otadi va bu yerda inson huquqlarini qay tomonlama kafolatlanishi va ularni muhofaza qilish choralar ko'rilganligiga kim kafolat bera oladi degan savolga kim javob berishligi haligacha keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda va o'rganilmoqda.

¹²⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellektni-huquqiy-tartibga-solish?ysclid=mhy86d84f5612851569> (10.11.2025).

Muayyan tartibda yuridik mexanizm haligacha mavjud bo‘lmaganligi tufayli sun’iy intellektni xalqaro maydonda faoliyat yuritishi va u tomonidan inson huquqlarini buzilishini oldini olish maqsadida umumiy bir qator huquq tizimlarini yaratish takliflari xalqaro miqyosdagi olimlar tomonidan berib kelinmoqda. Xususan, hozirgi kundagi sun’iy intellektlarni hayvonlarga tegishli bo‘ladigan huquq va qoidalarga tenglashtirilishlik taklifi ilgari surilmoqda. Yanada tushunarliroq qilish maqsadida milliy qonunchilikka nazar tashlaydigan bo‘lsak, Fuqarolik kodeksining 1002-moddasida¹²¹ uy hayvoni tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning mulkdori yoki bu hayvonga egalik qiluvchi va undan foydalanuvchi shaxs umumiy asoslarda javobgar bo‘ladi. Lekin boshqa tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, hayvonlarning tartib-taomillari sun’iy intellektlarga nisbatan qo‘llashlik xato. Sababi, yuqorida keltirib o‘tilgan norma faqat uy hayvonlari uchun qo‘llaniladi, boshqacha qilib aytganda, ular tomonidan yetkaziladigan zarar har doim ham katta darajadagi xavflarga yoki zararga olib kelmaydi va ma’lum bir ma’noda qat’iy ham emas. Aynan shuni inobatga olgan holda, olimlar yovvoyi hayvonlarga nisbatan joriy qilingan qonunlarni qo‘llashni tavsiya bermoqda. Lekin qat’iy qonun-qoidalarining qo‘llanilishligi natijasida sun’iy intellektlarning faoliyatini ma’lum bir ma’noda cheklab qo‘yishligi va tanqidiy ravishda sekinlashtirishi mumkin.

Yana bir taklif sifatida - sun’iy intellektlarning huquqiy javobgarligi va imkoniyatlari yuridik shaxs maqomi bilan tenglashtirilishi ilgari surilmoqda. Bu ma’lum bir ma’noda to‘g‘ri hamdir. Chunki yuridik shaxs ham sun’iy ravishda yaratilgan qonun subyektdir va sun’iy intellektlar ham aynan shu maqomda keyinchalik faoliyat yuritish bo‘ladi. Muayyan tartib tamoyillar bilan sun’iy intellektning javobgarligi va huquqiy mavqeyini belgilash inson huquqlarini yanada mustahkamlash va uni buzilishini sun’iy intellektlar tomonidan amalga oshirilishini oldini olish ma’lum bir ma’noda muhofazaga qaratilgan harakatlar boshlanganligini namoyon qilgan bo‘ladi.

Milliy qonunchilikka nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyo hamjamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan zamonaviy yutuqlardan keng va samarali tarzda foydalanishga imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan:

- 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab 15 ta oliy ta’lim muassasasida sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari hamda davlat boshqaruvi tizimida amaliy qo‘llanishi bo‘yicha kurslar va fanlar joriy etildi;
- 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab “Sun’iy intellekt” yo‘nalishida kadrlar tayyorlash uchun 12 ta oliy ta’lim muassasasiga 572 nafar talaba (510 nafar bakalavr, 62 nafar magistratura) o‘qishga qabul qilindi;

¹²¹ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/-180552#-196685> (11.11.2025).

- “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan “Sun’iy intellekt” yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olish istagini bildirgan yoshlar yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalariga yuborildi;

- Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida ixtisoslashgan laboratoriyalarga ega Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi;

- O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali faoliyati doirasida sun’iy intellekt asosidagi dasturiy ta’minotdan foydalanish uchun davlat organlari ma’lumotlari va boshqa ma’lumotlar to‘plamlarini olish imkoniyatini taqdim etuvchi raqamli ma’lumotlar platformasi (data.egov.uz) ishga tushirildi.¹²²

Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish hamda rivojlantirish orqali yangi va yuqori qiymat qo‘shilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini, xizmatlar ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish maqsadida raqamli hukumat sohasida bir qator o‘zgarishlar amalga oshiriladi:

- raqamli davlat xizmatlarini ko‘rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) bo‘yicha sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash;

- sohada nutqni aniqlash va sintezlash texnologiyalari, “tabiiy tilga ishlov berish” (LLM hamda NLP) kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish;

- yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida chat-botlar yaratish;

- ko‘rsatiladigan xizmatlarni to‘liq avtomatlashtirish va qisqa vaqt davomida sifatli xizmat ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish;

- rejalashtirish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarining samaradorligini oshirish;

- davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ularni taqdim etishda fuqarolar uchun qulayliklar yaratish;

- sun’iy intellekt va “katta ma’lumotlar” bilan ishlash uchun superkompyuter va “bulutli platformalar”ni rivojlantirish.¹²³

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ijrosini ta’minlash yuzasidan qator chora tadbirlar o‘tkazilinmoqda. Sun’iy intellekt sohasida bir qator yo‘nalishlarda 2030-yilga qadar erishilinishi kerak bo‘lgan

¹²² “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son. <https://lex.uz/docs/-7158604> (12.11.2025).

¹²³ “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son. <https://lex.uz/docs/-7158604> (12.11.2025).

yutuqlar belgilanib qo'yildi. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun 2025-yil 1-yanvardan boshlab Raqamli texnologiyalar vazirligiga 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga 50 million AQSH dollari miqdorida foizsiz kredit ajratilishi belgilandi. Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi uchun zarur normativ-huquqiy bazani shakllantirish, xalqaro standartlarni joriy qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilmani yaratish, sun'iy intellekt yo'nalishidagi xalqaro indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash bo'yicha ishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida "aqli" va boshqa istiqbolli texnologiyalarni, shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi texnologiyalarni joriy etishning konseptual va uslubiy asosini shakllantirish belgilandi.

O'tkazilayotgan qator islohotlar natijasida sun'iy intellekt rivojiga yetarlicha e'tibor va keng sharoitlar yaratilmoqda. Ammo, shuni ta'kidlab o'tish joizki, yaratilayotgan sharoitlar natijasida sun'iy intellekt tomonidan sodir etilayotgan inson huquqlarining buzilishi qanday tartibda nazorat qilinadi degan savolga javob topish o'rinlidir. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonunga muvofiq, uning huquqiy yechimlari va muhofaza qilish yo'llar keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, o'ziga ishonib topshirilgan yoki kasbiy, xizmat yoxud mehnat majburiyatlarini bajarishi sababli ma'lum bo'lib qolgan shaxsga doir ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilmasligi shart. Davlat shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishni kafolatlaydi va ular maxfiy tarzda saqlanadi.

Agar muayyan tartibda huquqbuzarliklar sodir etiladigan bo'linsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46²-moddasiga¹²⁴ asosan, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Yuqoridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy

¹²⁴ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/docs/-97664> (12.11.2025)

hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.¹²⁵

Umuman olganda, mamlakatimizda sun'iy intellekt va boshqa AI larning rivojlanishiga yetarlicha sharoitlar yaratib berilishi bilan bir qatorda, qonun hujjatlarda uning huquqiy asosi ham ma'lum bir ma'noda belgilab qo'yilmoqda. Shuningdek, kiritilayotgan o'zgartirishlar natijasida yangi, alohida sun'iy intellektga oid bo'lgan qonun ishlab chiqish va inson huquqlarini buzilishini oldini olishga oid bo'lgan qator normalar kiritilishi nazarda tutilmoqda.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellektning jadal sur'atlarda rivojlanishi inson huquqlarini ta'minlash tizimi oldiga tamoman yangi chaqiriqlarni qo'yimoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining noto'g'ri qo'llanilishi yoki nazoratsiz rivojlanishi so'z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, diskriminatsiyaga qarshi himoya kabi fundamental inson huquqlarning buzilish xavfini keskin oshiradi.

Shu sababli sun'iy intellektni tartibga soluvchi aniq, amaliy va xalqaro darajada tan olingan normativ-huquqiy mexanizmlarni yaratish strategik zaruratdir. Mas'uliyatni belgilash, algoritmik shaffoflik, inson nazorati, ma'lumotlarni himoya qilish, etik normalarni joriy etish ushbu tizimning ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Davlatlarning milliy qonunchiligi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar va global hamkorlik sun'iy intellekt texnologiyalar sohasida yuzaga kelayotgan xavflarni samarali bartaraf etish imkonini beradi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sun'iy intellekt inson huquqlariga zid bo'lmagan tarzda rivojlantirish — nafaqat texnologik masala, balki, zamonaviy jamiyatning eng muhim huquqiy va axloqiy vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi
3. International Covenant on Civil and Political Rights
<https://www.refworld.org/legal/agreements/unga/1966/en/17703>
4. Budapesht konvensiyasi
5. Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi
6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi
7. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi

¹²⁵ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453> (13.11.2025)

8. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
9. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.2019 yildagi O‘RQ-547-son
10. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son.
11. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi
12. G‘ulommamatova P. A. Kiberjinoyat huquqi : O‘quv qo‘llanma. – Toshkent : TDYU nashriyoti, 2025. – 144 b.
13. Goodall, N.J.(2018). “Can You Program Ethics into a Self-Driving Car?”. IEEE Spectrum.
14. BBC News, (2020). “Uber’s self-driving operator charged over fatal crash”. <https://www.bbc.com/news/technology-54175359>
15. European Parliament, (2017). “Civil Law Rules on Robotics”. Retrieved from <https://www.europarl.europa.eu>
16. Human Rights Watch. (2020). “China: Abuses of Facial Recognition Systems”. Retrieved from <https://www.hrw.org>
17. Isaak, J., & Hanna, M, J. (2018). “User Data Privacy” Facebook, Cambridge Analytica, and Privacy Protection”. Computer.